

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoysi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

ТАРИХ

A.Sharafiddinov	
Farg'onan viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

**ONA TILI DARSALARIDA GRAMMATIK MAVZULARNI O'RGATISHDA ESSE
METODIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI**

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ЭССЕ ПРИ
ПРЕПОДАВАНИИ ГРАММАТИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ НА ЗАНЯТИЯХ РОДНОГО ЯЗЫКА**

**DIDACTIC CONDITIONS OF USING THE ESSAY METHOD IN TEACHING GRAMMAR
SUBJECTS IN MOTHER LANGUAGE CLASSES**

Islomova Feruza Habibullayevna¹

¹Islomova Feruza Habibullayevna

— Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'l'm mabtableri ona tili darslarida o'quvchilarning nutqi kompetensiyalarini, xususan yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishda yozma ish turlaridan biri sifatida amaliyatga kirib kelgan esse yozdirishning didaktik shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari esse yozish ko'nikmalarini o'quvchilarda rivojlantirishning metodik mezonlari tadqiq etilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются дидактические условия и особенности написания эссе, вошедшего в практику как один из видов письменной работы по совершенствованию устных компетенций, особенно навыков письменной речи, в классах родного языка общеобразовательных школ, представлены студентам, исследованы методические критерии развитие письменной речи при написание эссе.

Abstract

In this article, the didactic conditions and specific features of essay writing, which has entered practice as one of the types of written work in improving students' speaking competences, especially written speaking skills, in the mother tongue classes of general education schools, the characteristics of essay writing skills in students methodological criteria of development have been researched.

Kalit so'zlar: esse, Grammatik shakl, lingvistik tushuncha, nutqi kompetensiya, lingvistik hodisa, ijodiy matn adabiytil me 'yorlari, kommunikativ sifatlar, Imlo me 'yorlari, talaffuz me 'yorlari, grammatik me 'yorlar, so'z tanlash va qo'llash me 'yorlari, uslubiy me 'yorlar, savodxonlik ,besh daqiqa liesse , erkin yozish metodi

Ключевые слова: эссе, грамматическая форма, языковая концепция, речевая компетенция, языковой феномен, творческий текст, нормы литературного языка, коммуникативные качества, нормы правописания, нормы произношения, грамматические нормы, навыки выбора и употребления слов, методические нормы, грамотность, пятиминутное сочинение, свободное метод письма

Key words: essay, grammatical form, linguistic concept, speech competence, linguistic phenomenon, creative text, literary language standards, communicative qualities, spelling standards, pronunciation standards, grammatical standards, word choice and use skills, methodological standards, literacy, five-minute essay, free writing method

KIRISH

Yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish va so'zlarni o'rini qo'llash uchun nazariy bilim bilan birga uzuksiz mashq olib borish muhim o'rin tutadi. Chunki uzuksiz mashq qilib borish natijasidagina yozma nutq sohasida muhim ko'nikma va malakalarga ega bo'lish mumkin.Grammatik qoidalarning yetarli o'zlashtirilmasligi, yozma nutqda ifodalash malakasining yetishmasligi esse yozishda xatolarga yo'l qo'yilishining asosiy sababidir. Xatosiz yozish bevosita tilning grammatik qurilishini va lug'at tarkibini mukammal o'zlashtirish bilan bog 'liq. Badiiy asarlarni muntazam o'qib borish, ulardan zarur joylarini ko'chirib olish, parchalar yodlash, matn yuzasidan turli yozma ishlar olib borish esseni to'gri, xatosiz yozishga yordam beradi. Inson nutqining rivojlanishi, mazmundorligi, nutqning nechog'lik mantiqiyligi, umuman, fikrlash qobiliyati uning badiiy adabiyotga munosabati bilan belgilanadi.

Esse yozishda tanqidiy fikrlash bilan bir qatorda savodxonlik va mazmun asosiy o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quvchilarning yozma nutqini yozma ishlar orqali takomillashtirish yuzasidan A.G'ulomov, M.Qodirova, M.Ernazarova, O.Madayev, S.Dolimov, N.Sattorova, I.Asimova, K.Mavlonova, M.Qurbanovalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, mazkur olimlarning ilmiy izlanishlari va chiqargan

ilmiy xulosalariga asoslanib umum ta'llim məktəb o'quvchilarning yozma nutqini takomillashtirishga erishilgan. O'quvchilarning yozma nutq malakalarini takomillashtirish muammosi quyidagi olimlar va o'qituvchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bularning asosi qismi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Bu izlanishlarda asosan yozma ishning insho turi bo'yicha so'z yuritilgan. A.Aliyev, S.Dolimov, S.Ismatov, O.Madayev, K.Qosimova, N.Sattorovalarning nomzodlik dissertatsiyalari va uslubiy qo'llanmalarida o'quvchilarni insho yozishga o'rgatishning ayrim jihatlari yoritilgan bo'lib, A.G 'ulomov, S. Dolimov, O.Madayev, N.Sattorovalar ona tili darslarida kichik-kichik insholarni o'tkazib turish g'oyalarini ilgari surdilar.[1,2,3,4] "Insho o'tkazish haqida tavsiyalar" kitobida insho nazariyasidan bilim berish, ya'ni insho mavzusi, uning talabi, inshoda yoritiladigan asosi fikr, inshoning qurilishi to'g'risida ma'lumotlar berish xususida fikr yuritiladi. Yuqori sinf o'quvchilarida insho yozish malakalarini takomillashtirish uchun ilmiy islar va shu kabilar kam qismni tashkil etib, ular quyidagilar: N.Sattorova "O'quvchilarda insho yozish malakalari takomillashtirish" nomli dissertatsiyasida faqatgina 5-sinf o'quvchilarini insho yozishga o'rgatish ko'zda tutilgan. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmonova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyevalarning "Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant" nomli o'quv qo'llanmasida ham insho haqida ma'lumot, insho turlari va insho yozish uchun yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berilgan. Yozma nutqni o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati yuzasidan Ushbu tadqiqotlardagi ilmiy xulosalarga asoslanib, ushbu maqolada yozma nutqni hamda tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi yozma ish turi sifatida esse yozdirishning didaktik shart-sharoitlari o'chib berilgan va tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada asosan emppirik metoddan foydalananligan. O'quvchilarning esse yozish orqali yozma nutq ko'nikmalari hamda tanqidiy fikrlash malakalarining rivojlanishini kuzatish, anketa-so'rovnama o'tkazish, eksperiment metodlari assosida kuzatildi va xulosalar chiqarildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ona tili ta'llimining bosh maqsadi—o'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili darslarida o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma usullarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlanishini alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir o'qituvchidan qaysi fan, qanday dars turidan qat'iy nazar har bir dars jarayonida bevosita o'quvchining o'g 'zaki va yozma nutq salohiyatini rivojlantrib borish talab etiladi. Jumladan, ona tili va adabiyot darslarida esse usulini qo'llash ahamiyatlidir. Esse metodidan foydalangan holda darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiya maqsad muammoning yechimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'riligiga ishontirishidir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda esse yozish samarali metod hisoblanadi.

Esse ijodiy matn. Esse yozishda o'quvchining ona tilining barcha sathlari bo'yicha egallagan bilimlari o'z aksini topadi.

Tilning fonetikasi uning birdan-bir konkret tomonidir. Masalan, «a» tovushi faqat va faqat «a» tovushini bildiradi. Fonetika, fonema, bo'g'in, urg'u kabi lingvistik kategoriylar abstrakt tafakkur mahsuli bo'lsa-da, nutq tovushi (a), so'zning bir qismi (al-la), so'z bo'g'inlaridan bittasining kuchli aytilishi (urg'u) ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. Esse metodini qo'llashda fonetik bilimlar bir-biri bilan bevosita bog'langan. Buning uchun har bir nutq tovushini o'rinni qo'llashga e'tibor beriladi. Lingvistik tushunchalarni egallash, fonematik eshitishni o'stirish o'quvchilarda til sezgirligini tarbiyalaydi. Shunday qilib, fonetikaga oid nazarli bilimlarni esse yozishda qo'llash jarayonida (bo'g'in, urg'u) o'quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik kabi qator nutq malakalari hosil bo'lishida muhim ro'l o'ynaydi.

O'quvchilarning leksika bo'yicha olgan bilimlarni qanchalik o'zlashtirgani so'zlarni o'z va ko'chma ma'noda qo'llay olishi, ko'p ma'noli so'zlar, yaqin va qaram qarshi m'a'noli so'zlar, so'z va termin, tilning lug'at boyligi, shuningdek, sinonim, antonim, omonimlardan esse yozishda foydalanganligida ko'rindi. Leksikani o'rganish dasturlarda ko'rsatilgan materiallarni o'zlashtirish bilan chegaralanmaydi. Ta'llim jarayonida fan o'qituvchilari o'z predmetlariga oid terminlarni tushuntirib borishadi. Nutq o'stirish nuqtai nazaridan tilning leksik tomonini o'rganish birinchi sinfdan mifik tabni tugatgunga qadar davom etadi. Leksika materiallari bog'langan holda o'quvchilarda har bir so'zni nutqda to'g'ri qo'llash malakalari hosil qilinadi. Nutq maqsadiga muvofiq

TILSHUNOSLIK

so'z tanlash, berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzish yo'li bilan bolalarda uslubiy malakalar shakllanadi. Maktabda grammaticani o'rganish birinchi sinfdanoq boshlanadi. So'z tarkibi mavzusini o'tish natijasida o'quvchilar so'zning qurilishi, so'z yasash qonuniyatlarini o'zlashtirishadi. Har bir so'z turkumiga oid so'zning ma'nosi ustida ishlash, so'zlarning talaffuzi va imlosini o'rganish orqali o'quvchilar shu so'zlarni aytish va yozishni, grammatic kategoriyalarni (kelishik, egalik, ko'plik, shaxs-son, tuslanish) o'rganish orqali gapda so'zlarning o'zgarishi hamda bog'lanishini bilib olishadi va esse yozish jarayonida shu bilimlarga tayanishadi.

Morfologiya materiallarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda orfoepik, orfografik, uslubiy malakalar va bog'lanishli nutq tuzish iqtidori shakllantiriladi. O'quvchilar sintaktik hodisalar bilan boshlang'ichi sinfdayoq tanishishadi. Yuqori sinflarda esa sintaksisga oid bilimlar tizimli tarzda o'rganiladi. Sodda va qo'shma gap sintaksisini o'rganish natijasida bolalar gapni to'g'ri tuzish, to'g'ri o'qish, gapda tinish belgilarni ishlatish qoidalarini o'zlashtirishadi. Demak, sintaksisdan o'rganiladigan bilimlarga bog'lab o'quvchilarda uslubiy, punktuatsion, intonatsion malakalarni qanday egallaganligi namoyon bo'ladi

Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantiradi. Madaniy nutq milliy tilning o'ziga xosligi, ma'no tomonidan aniqligi, tarkibidagi so'zlarning maqsadga muvofiqligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og'zaki shakli adabiy tilning orfoepik me'yorlariga, yozma shakli orfografiya va punktuatsiya me'yorlariga mos bo'lishi lozim. Nutq madaniyati adabiy til me'yorlari ustida o'quvchilaming amaliy faoliyatini tashkil etish natijasida shakllanadi.

Olimlar tomonidan e'tirof etilgan, shu tilda so'zlovchilaming barchasi rioya qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar adabiy til me'yorlari hisoblanadi.

Nutqning to'g'ri bo'lishi eng avvalo, uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir.

Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'Ichov (mezon)ga asoslanishimiz tayin. Mana shu o'Ichov (mezon) tilshunoslikda **adabiy til me'yori** deb yuritiladi.[1, 303]

Adabiy til me'yorlari til vositalarining nutqda qo'llanishini belgilab beruvchi qoidalar yig'indisi bo'lib, ular har bir til bo'limida ko'rib chiqiladi, ya'ni leksikologiyada leksik–semantik me'yorlar, fonetikada orfoepik va orfografik me'yorlar, grammaticada morfologik va sintaktik me'yorlar o'rganiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish kerakki, umumta 'lim maktablari ona tili darslarida yozma nutqni o'stirish vositasi sifatida yozma ish turi sifatida kirib kelgan esse yozma ishning boshqa turlaridan (bayon, insho, diktant) qo'yilayotgan muammoning qiziqarliligi, o'quvchi yoshiga mos ekanligi hamda erkin kompozitsiyali ekanligi, badiiy tafakkur talab etilmasligi bilan o'quvchida beixтиyor yozishga qiziqish uyg'otishi bilan farqlanadi. O'quvchining so'z boyligi yetarli bo'lishi, ona tilidan o'rgangan grammatic bilimlarini esse matnini tuzishda to'g'ri va o'rinni qo'llay olish malakasi o'quvchilarning bilish jarayonini boyitadi. motivatsiya beradi. Esse metodini qo'llashda ma'nodosh so'zlarni, ibora, maqol, hikmatli so'zlar, kirish so'z va kirish gaplardan o'rinni foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda esse yozish uchun mavzu taklif qilishdan tashqari kalit so'zlar asosida matn tuzish, rasmga qarab esse matni yozish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida ana shunday tilning bor imkoniyatlaridan foydalanib matn yaratish (esse yozish)o'quvchining yozma nutq ko'nikmasining rivojlanishida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov A, Qodirov ,Ernazarova M va boshqalar Ona tili o 'qitish metodikasi- T: "Fan va texnologiya",2012,380 b
2. Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho: Sakkiz yillik mактабнинг ona tili va adabiyot o'qituvchilariga yordam. – T O'rta va oliy maktab, 1964. – 102 b.
3. Madayev O. v.b. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 104 b.
4. Сатторова H. O'quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish (5-sinfda ona tili o'qitish jarayonida): Ped. fan. nom. diss. – Toshkent, 1995. – 141 6.